



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

Abrar from the University of Tehran Library, where the illustrations were added later, possibly to enhance the overall value of the works. In these two instances, a direct connection between the adjacent verses and the miniatures could not be established.

Another important point to note is that the flourishing of illustrated Turkish manuscripts by calligraphers, painters, and illuminators coincided precisely with the emergence of the literary genius, Nava'i. Prior to this, Turkish works were not illustrated on such a large scale. Nava'i's works served as a pivotal starting point for the popularity of Turkish texts among artists, leading to their widespread illustration and copying.

References

- Ajand, Yaqub, (2003), Sultan Husayn Bayqara's Art Workshop, *Honarha-ye Ziba* (Fine Arts), No. 12, pp. 89-99.
- Akbari, Elham; Afzal Tusi, Effat al-Sadat; Keshmiri, Maryam, (2023), *Stylistics of Golden Tables in Manuscripts of the Timurid and Safavid Periods (9th to 12th centuries AH)*, *Negareh Scientific Quarterly*, pp. 25-45.
- Elahizadeh, Mohammad Hossein; Mohammaddust Lashkami, Kabiri; Najafzadeh, Ali, (2014), *Negarine-ye Honar-e Islami Journal*, No. 3, pp. 57-69.
- Khand mir, (1974), *Habib al-Siyar*, Volume 4, Tehran: Khayyam.
- Khand mir, (1999), *Makarem al-Akhlaq*, edited by Mohammad Akbar Ashiq, Tehran: Markaz-e Nashr-e Miraath-e Maktoob.
- Razmi, Gholamreza, (2022), *Amir Kabir Nizam al-Din Amir Ali Shir Navai: (Hayati, Asarlari, Yaradiciqliqi ve Asarlari Nin Tahrir Shiva Si)*, Tabriz: Nashr-e Tajaddod.
- Zeki Velidi Togan, Ahmad; Nategh Sharif Maryam, (1998), *Nameh-ye Parsi Journal*, No. 10, pp. 39-57.
- Zamchi Esfzari, Moin al-Din, (1959), *Rauzat al-Jannat fi Awsaf-i Madinat Herat*, edited by Mohammad Kazem Imam, Tehran: University of Tehran.
- Monshi Qomi, Qazi Mirahmad, (1973), *Golestan-e Honar*, edited by Ahmad Soheili Khansari, Tehran: Bunyad-e Farhang-e Iran Publication.
- Navai, Amir Nizam al-Din Ali Shir, (1984), *Tazkereh Majalis al-Nafays*, edited by Ali Asghar Hekmat, Tehran: Chap-e Golshan.
- Vāṣifī, Zayn al-Dīn Maḥmūd, (1970), *Badā'i' al-waqā'i'*, Volumes 1 and 2, Tehran: Bunyad-e Farhang-e Iran Publication.

ALISHER NAVOIYNING DASTLABKI IKKI DEVONI HAMID SULAYMON NIGOHIDA

Madaliyeva Oysara Rustamovna,

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, (PhD), dotsent*

oysara19@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/ORXL3019

Annotatsiya: *Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni – “Badoyi’ ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya”ning qo’lyozmalari haqida professor Hamid Sulaymonning doktorlik dissertatsiyasida davrining imkoniyatlariga ko’ra qimmatli ma’lumotlar berilgan. Ushbu maqola mazkur dissertatsiyaga asoslangan holda ikki devonning ilk nusxalari, ularning tarkibi, hamda birlamchi manbalarda ular haqida yozilgan qaydlarni tadqiq etishga bag’ishlanadi. Shuningdek, maqolada ushbu dissertatsiya yozilgan davrdan so’ng Navoiy she’riyatining dastlabki ikki*

bosqichi – yigitlik va o'rta yosh lirikasini o'zida saqlab kelayotgan yangi qo'lyozmalar aniqlanishining fanga qo'shayotgan hissassi borasida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Hamid Sulaymon, "Badoyi' al-bidoya", "Navodir un-nihoya", qo'lyozma, devon, devonchilik an'analari, debocha, janr, g'azal, tarji'band.

TWO EARLY DIVANS BY 'ALI SHĪR NAVĀ'Ī THROUGH THE EYES OF HAMID SULAYMAN

Abstract. This article explores Prof. Hamid Sulayman's doctoral dissertation, which provides valuable insights into the manuscripts of two early divans by 'Ali Shīr Navā'ī – *Badāyi' al-bidaya* and *Nawadir al-nihaya*. While Sulayman's work, written over sixty-five years ago, laid a significant foundation, certain postulates require revision and further clarification in light of contemporary advancements in Navā'ī studies. This article, building upon Sulayman's research, examines early copies of these divans, analyzing their contents and the notes made in primary sources. Additionally, the article highlights the contributions of newly discovered manuscripts, which were found after the publication of Sulayman's dissertation. These manuscripts include works from the initial stages of Navā'ī's poetry, encompassing both his youthful and mature lyrical legacy, thereby enriching the study of Navā'ī's early poetic development.

Key words: 'Ali Shīr Navā'ī, Hamid Sulayman, *Badāyi' al-bidāya*, *Nawadir al-nihaya*, manuscript, divan, the traditions of divans, *dibacha*, genre, *ghazal*, *tarji'-band*.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (844–906/1441–1501) asarlari, xususan, devonlarining shoir tirikligi choqlaridan to XX asrning birinchi choragiga qadar qayta-qayta qo'lyozma kitoblar holiga keltirilishi turkiy adabiyotninggina emas, butun turkiy madaniyatning bir parchasini, eng nozik qadriyatlarni o'zida tashiyotgan lirik asarlarni asrab-avaylash, keyingi avlodga yetkazish maqsadlarini ko'zda tutib amalga oshirilgan deyish mumkin. Zero, "Sharqda qo'lyozma kitoblarning yaratilishi o'nlab tillar va yodgorliklar bilan bog'liq holda yuz berdi. Sharq qo'lyozma kitoblari bir qancha jahon dinlariga yo'l boshchi bo'ldi, yordam berdi... Uning Sharq xalqlari madaniy hayotidagi roli shu qadar yuksakki, aynan qo'lyozma kitoblar Sharq xalqlari madaniy qadriyatlarining davomiyligini ta'minlovchi muhim hodisadir" [Рукописная книга, 1987: 9].

Hamid Sulaymonning (1910–1979) doktorlik dissertatsiyasiga Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek (1905–1968) tomonidan: "Hamid Sulaymon Navoiyning deyarli butun lirikasini yig'ib, tartibga solgan. Navoiy lirikasini tekstologik tekshirib, shoirning asl she'riyatini aniqlash vazifasini o'z oldiga qo'ygan. Va buni to'la mukammal bajara olgan. Dissertatsiyada ilovalar, jadvallar, lug'atlar nihoyat to'la va tartibli bajarilgan... Hamid Sulaymonga filologiya fanlari doktori darajasining berilishini so'rayman" [Ойбек, 1979: 397-399] mazmunida taqriz yozilgan edi. Ushbu tadqiqotning yaratilganiga oltmish yildan oshsa hamki, hali-hanuz sohada amalga oshirilayotgan tadqiqotlar uchun fundamental ish vazifasini bajarib kelmoqda.

H.Sulaymonning "Alisher Navoiy lirikasi matnshunoslik tadqiqi" ("Тестологическое исследование лирики Алишера Навои") nomli doktorlik dissertatsiyasini [Сулейманов, 1955–61] o'qir ekanmiz, olimning Alisher Navoiy ijodi, xususan, shoir lirikasi manbashunosligi va matnshunosligi borasida o'z davrining zamonaviy metodologiyasi asosida tinimsiz mehnat qilganini his etish qiyin emas. 1955–61- yillarda yozilgan 3 tomdan iborat mazkur tadqiqotda Navoiyning turkiy va forsiy qo'lyozma devonlarining yurtimizgina emas, balki xorij fondlariga tegishli bir qancha nusxalari ilmiy o'rganilgan, ularning ahamiyati ochib berilgan. Ta'kidlash joiz,

mazkur qo'lyozma devonlar orasida bir nechta navoiyshunoslikka ilk bor aynan mana shu dissertatsiya qo'lga kiritgan ilmiy natija o'laroq ma'lum bo'lgan. Zotan, muallifning o'zi S.L. Volin (1909–1943) xulosalari asosida dissertatsiyasining haqiqiy bahosini bergan edi: "Navoiy devonlari qo'lyozmalarini u yoki bu redaksiyaga nisbat berish mushkul masala. Qo'lyozmalarning matnlarini to'liq taqqoslab chiqqandan so'nggini ularni u yoki bu redaksiyaga nisbat berish ishonchli tarzda amalga oshirilishi mumkin. Ushbu masalani hal etishdagi butun og'irlikni haqiqatan mazkur dissertatsiyaning muallifi bo'yniga olgan" [Сулейманов, 1955–61: 51]. Shu ma'noda, H.Sulaymon doktorlik tadqiqotining yutuqlari muallifninggina emas, navoiyshunoslikning katta muvaffaqiyati sifatida qadrlidir. Quyida Navoiy qo'lyozma devonlari manbashunosligining ushbu dissertatsiyada bayon etilgan ayrim jihatlari haqida so'z yuritamiz.

H.Sulaymonning hayoti va faoliyatiga oid bir necha tadqiqotlar mavjud [<https://ziyouz.uz/sulamonov-1910-1979/>; <https://yuz.uz/news/navoiyshunos-zabardast-olim>; [https://oyina.uz/kiril/article/355\\$](https://oyina.uz/kiril/article/355$); Qobulova, 2021: 96-99; Namozova, 2023: 12-16]. Uning doktorlik dissertatsiyasi bizga qadar sohaga oid ko'plab ilmiy ishlarga jalb etilgani ma'lum. Olimning Navoiy lirikasi ustida olib borgan ishlari alohida dissertatsiya doirasida ham o'rganildi [Намозова, 2020: 50]. Shuningdek, O'zR FA Davlat Adabiyot muzeyi tomonidan "Professor Hamid Sulaymon nomidagi yosh matnshunoslarning ilmiy-amaliy respublika konferensiyasi"ning o'tkazib kelinayotgani olimning ilmiy merosi sohaga oid ayni paytda yozilayotgan tadqiqotlar uchun nechog'liq muhim ekanini anglata oladi.

H.Sulaymon yozadi: "Makorim ul-axloq", "Boburnoma", muallif asarlariga tuzilgan "Abushqa" lug'ati, turli yillarga oid bayozlarda shoirning lirikasi haqida gap ketganda odatda uning G'S, NSH, BV va FK devonlari yoki ularning umumiy nomi XM esga olinadi. Shuningdek, forsiy she'rlari jamlanmasi "Devoni Foniy" ham eslanadi. Dastlabki devonlar BB va NN haqida esa ilmda muallifning qaydlaridan boshqa hech qanday ma'lumotlar mavjud emas. Bu devonlarning qo'lyozmalari voqelikda mavjud ekaniga qaramay, hech kim o'rganmagan va bilmagan" [Сулейманов, 1955–61: 79].

Darhaqiqat, keyingi asr manbalari, shuningdek, yangi zamon fehrist va kataloglarida ham shoirning turkiy devonlari "Devoni Navoiy"[1] tarzida keladi. Bizningcha, turli qo'lyozma asarlarda BB va NN devonlarining eslanmagani yoki o'rganilmagani Navoiyning o'zi tomonidan ta'kidlanganidek, "Va ikki murattab bo'lg'an devonlardin yangi aytilg'an abyot adadi aksar va har bayti lafzu ma'no bila darjlig' gavhar demaykim shu'lalig' ozar; ... alfozu iborat xazoyini hamul ma'nolar gavharidin to'ldi, bu ma'nodin aning otin X a z o y i n u l-m a o n i y qo'yuldi²⁴" ekanida, ya'ni XMga shoirning devonlar majmuasi tuzilgungacha yozilgan deyarli barcha she'rlarning kiritilgani bilan izohlash mumkin. Shuningdek, umrining poyoniga yaqin yozilgan "Muhokamat ul-lug'atayn"da (905/1499 y.) muallifning o'zi turkiy devonlari haqida so'z ketganda G'S, NN, BV va FK devonlarini yodga oladi, ammo ulardan avval tuzgani ikki devon – BB va NNlarni eslamaydi. Shu ma'noda, bu an'anani ehtimol shoirning o'zi boshlab bergan bo'lishi mumkin.

Zamonaviy fehrist va kataloglarda shoir turkiy devonlarining DN nomi bilan tavsif etilishi esa ularning tarkibini sinchiklab o'rganmagunga qadar aynan qaysi

²⁴ Alisher Navoiy «Xazoyinul-maoniy» // «G'aroyibus-sig'ar», I tom. H. Sulaymonov ilmiy-tanqidiy matni asosidagi nashr. – Toshkent: «O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti», 1959. – B. 9, 14.

devon ekanini aniqlashning imkoni yo'qligi sabab katalogizatorlar tomonidan umumiy bir nomda tavsiflash ma'qul ko'rilgan deyish mumkin [bu haqda batafsil qarang: Сирожиждинов, Эркинов, 2016: 17; Мадалиева, 2022: 146-166].

Shuningdek, yuqoridagi ikki holatni izohlashi mumkin bo'lgan yana bir fakt mavjud. Navoiy devonlari qo'lyozmalarining kolofonlarida ular "umumiyroq" nomlanadi. Bu esa shoir lirikasi o'rganilishi tarixiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Har holda, kolofonlar matni bilan bog'liq quyidagi holatlar bizni shunday o'ylashga chorladi.

Odatda mazkur kolofonlarda kotiblar "تمت الكتاب بعون الملك الوهاب" (In'om qiluvchi Olloh yordami bilan bu kitob [ko'chirilib] bitdi) yoki "شد بتوفيق خدای لا ینام ان کتابت روز ... " (Bu kitob uyg'oq Ollohning yordami bilan ... kuni [ko'chirilib] tugadi) ko'chirilgan kitobning nomini yozmaydilar.

Баъзан эса "تمت هذه النسخة الشريفة الكتابة امير علشير الملقب بالنوايي" (Navoiy taxallusli Amir Alisher qalamiga oid ushbu qadrli nusxa [ko'chirib] tugatildi) yoki "تمت التمام بو" (Amir Navoiy qalamiga oid ushbu qadrli nusxa [ko'chirib] tamomlandi) kabi ko'chirilgan kitob nomi "umumiylashtiriladi".

Shoir qo'lyozma devonlarining xotimasida kamdan kam hollarda "دفتر اول نوايي ... (Navoiynning ilk daftarikim, "G'aroyib us-sig'ar" [nomi] bilan atalgan edi) yoki "نوايي نينک اوچلانچي ديواني کيم بدايع الوسط بيله موسوم ايردى" Navoiyning uchinchi devonikim, "Badoyi' ul-vasat" [nomi] bilan atalgan edi) kabi kitob nomi aniq ko'rsatilgan qaydlarni o'qiymiz. Ya'ni aytmoqchimizki, kotiblar Navoiy devonlaridan birini ko'chirayotib, uning aniq nomini qayd etmasliklari odatiy bo'lgan. Ehtimol, shuning uchun ham BB va NN devonlarining nomi manbalarda yodga olinmay kelgan.

H.Sulaymon BB devonini 1469–1585-yillar orasida tuzilgan, deb hisoblagan. Olim BBning o'zi yashagan davrda ma'lum bo'lgan to'rt nusxasi haqida shunday yozgan edi: "Ushbu to'rt nusxa BB devoni ekani to'liq asosli. Birinchidan, har to'rt nusxaning janriy tarkibi bir-birini aynan takrorlaydi; ikkinchidan, ularning tarkibidagi janriy o'xshashlik muallifning ushbu devon debochasida yozgan so'zlariga mos keladi; uchinchidan, ushbu nusxalarning har to'rtalasida aynan birinchi devon – BBning debochasi mavjud"²⁵ [Сулейманов, 1955–61: 66].

H.Sulaymon fikrida davom etib yozadi: "To'rt qo'lyozma haqidagi jadvalda aks etganidek, Parij qo'lyozmasidan tashqari qolgan nusxalarning janriy tarkibi bir-biriga mos keladi va bu 11 janr muallifning o'zi qayd etgan janr nomlariga ham muvofiqdir. Faqat bizga noma'lum sababga ko'ra, Parij nusxada she'riy janrlardan 6 tasi (muxammas, musaddas, qit'a, mustazod, muammo, tarji'band) yetishmaydi. London, Boku va Toshkent nusxalariga yangi she'rlarning qo'shilib borishi, bizning fikrimizga ko'ra, ular shoirning BB tuzilib bo'lgach, yangi yozgan she'rlarini qo'shib borish hisobiga amalga oshgan". [Сулейманов, 1955–61: 69]. BBning Parij nusxasidan avvalroq tuzilgan bo'lishi va o'sha qo'lyozmalar kunimizgacha yetib kelmagan yoki hali fanga noma'lum bo'lishi mumkin. Bu masalada H.Sulaymon doktorlik dissertatsiyasining bir necha o'rnida o'z qarashlarini bayon qilgan [Сулейманов, 1955–61: 63, 66, 142].

1987-yil BBning tabdil matni nashr etildi [Алишер Навоий, 1987: 689]. So'zboshida matnga "Badoyi' ul-bidoya" devoninnng Toshkent qo'lyozma nusxasi (inv.

²⁵ H.Sulaymon BBning Boku nusxasida debocha yo'qligini dissertatsiyasining 68-sahifasi 1-jadvalda bergan. Noma'lum sababga ko'ra, bu o'rinda har to'rt nusxada debocha mavjud kabi ma'lumot berilgan.

№ 216) asos qilib” olingani va “Uning tekstini “Badoyi’ ul-bidoya”ning qadimiy nusxalari, jumladan, Parij milliy kutubxonasida inv. № 746 bilan saqlanuvchi 1480 yilda ko’chirilgan qo’lyozma hamda Britaniya muzeyidagi № 401 inventariga ega bo’lgan 1482 yilda ko’chirilgan qo’lyozmalar fotonusxalari bilan solishtirib” chiqilgani haqida ma’lumot berilgan [Алишер Навоий, 1987: 5].

Shuningdek, H.Sulaymon doktorlik dissertatsiyasi yozilgandan buyon Navoiyning o’zi tomonidan tuzilgan dastlabki ikki devonining muallif davriga oid yangi qo’lyozmalari aniqlanib kelmoqda. Xususan, 2018–2021-yillar orasida BBning yana to’rtta yangi nusxasi aniqlandi [Эркинов, 2018: 51-57; Турдиалиев, Эркинов, 2018: 57-62; Erkinov, 2018: 18-31; Максудов, 2020: 9-18; Boltabayev, 2022: 438-466; Эркинов, 2022: uza.uz, Madaliyeva, 2022: 4-19]. Bu esa BB devoni matni va uning ustida olib boriladigan tadqiqotlarning davom etishini anglatadi.

H.Sulaymon Sultonali Mashhadiy (836/1432–33–926/1520) tomonidan ko’chirilgan 1995 raqamli qo’lyozmaning (O’zR FASHI asosiy fondi) NN nusxasi ekaniga quyidagi dalillarni keltirgan:

1. “Navoiy XM debochasida ikkinchi devoni NNni tuzgani va unga debocha ham bitganini ma’lum qiladi. Ammo biz NN nusxasi sifatida keltirayotganimiz 1995 raqamli qo’lyozmada bu debocha mavjud emas. Buni nusxaning kotibi Sultonali Mashhadiy uchun qo’lyozma asarning to’liqligi emas, uning kalligrafik xususiyatlari afzal bo’lgani, Mashhadiyning asosiy maqsadi o’zining usta xattot ekanini namoyon etish va durdona nusxa yaratish bo’lgan. Masalan, Mashhadiy tomonidan ko’chirilgan to’rtta TD nusxasining²⁶ birortasida debocha berilmagan va muallif prinsiplari mutlaqo saqlab qolinmagan. Shuning uchun, ikkinchi devonda Mashhadiyning debochani tushirib qoldirgani tabiiydir.

2. Debocha qoldirib ketilganiga qaramay, qo’lyozma bizning bu masaladagi tezisimizni to’lig’icha asoslaydi. 1995 raqamli qo’lyozmada jami 693 ta she’r mavjud. Ulardan 563 tasi mutlaqo yangi bo’lib, biz ularni shoirning birinchi devonida uchratmaymiz. 130 ta she’r esa bizga noma’lum sababga ko’ra bu yerda takrorlangan. 563 ta she’r shoirning NN deb nomlangan devonini tuzish uchun aynan asos bo’lgan”.

3. “Bu o’rinda ikkinchi bir savol paydo bo’lishi mumkin: qo’lyozmada sananing mavjud emasligi bizning dalillarimizni shubha ostiga qo’yishi mumkinmi? Axir Mashhadiy bir martagina TD tuzmadi, ehtimol, bu qo’lyozma ham XM she’rlaridan olib tuzilgan TDlardan farq qilmas? (Nyu-York №21 qo’lyozmaga qarang). Bu savolga bitta javob qilish mumkin: №1995 qo’lyozma XMning saylanmasi emas, u XV asrning 80-yillarigacha, ya’ni XM tuzilgungacha tartib berilgan devondir. 1995 raqamli nusxa tarkibidagi she’rlarning tartibi va ularning XMga taqsimlanishi ushbu fikrimizni isbotlashga xizmat qiladi. Alohida guruh g’azallarning ushbu ketma-ketligi quyidagi shaklda saqlangan. XM lirik kulliyotini tuzishdan avval shoir o’zining butun lirikasini bir joyga jamlagan, shuningdek, NN devonini ham g’oyaviy-badiiy xususiyatlari va mavzusiga ko’ra alifbo tartibida to’rt davrga (shoirning yoshga ko’ra taqsimotini nazarda tutyapmiz – bolalik, yigitlik, o’rta yosh va keksalik) to’rt devonga taqsimlagan”.

Shundan so’ng H.Sulaymon XMda g’azallarning alifbo tartibida kelishiga tushuntirish berib ketadi. Va fikrida davom etadi. “Shunday qilib, XMning har bir

²⁶ H.Sulaymon bunda quyidagi qo’lyozma devonlarni nazarda tutgan bo’lsa kerak. № 564 (Rossiya milliy kutubxonasi qo’lyozmalar bo’limi); №№ 3984, 790 – O’zRFASHI asosiy fondi; №21 (Metropolitan san’at muzeyi),

devoniga u yoki bu harfga yakunlanuvchi g'azallarni 4 ta manba: a) 564 raqamli "ID", b) BB devoni, v) NN devoni g) shoirning so'nggi yillarda to'planib qolgan, ammo hech qaysi devonga kiritilmagan she'rlaridan olib, joylab chiqadi. Buning uchun shoir bir manbadan bir xil harfga yakunlanadigan ikki-uch she'rni oladi va XM devonlariga taqsimlaydi. Xuddi shu holatni NN bo'yicha ham ko'rish mumkin bo'ladi. 2- jadvaldan ayon bo'ladiki, 1995 raqamli qo'lyozmadan ketma-ket uch, ba'zan to'rt g'azal olinadi va XMning to'rt devoni o'rtasida taqsimlanadi. Shu holatning o'zi 1995 raqamli Toshkent nusxasi NNning muallif variantidagi qo'lyozmasi ekanini shubhasiz isbotlaydi" [Сулейманов, 1955-61: 73-75].

4. "Shuningdek, yana bir haqiqatga diqqat qaratish kerak bo'ladi: birinchi devon BB hech istisnosiz barcha TDlarning qo'lyozmalari va shoirning o'zbek tilidagi barcha to'plamlarining ilk g'azali mashhur falsafiy she'r

اشرقت من عكس شمس الكأس انوار الهدى
يار عكسين مي دا كور ديب جام دين چقتى صدا

bilan boshlanadi. NN esa shoir tomonidan NSHga birinchi g'azal sifatida joylangan

زهی ظهور جمالینک قویاش کیبی پیدا
یوزونک قویاشیغه ذرات کون اولوب شیدا

g'azali bilan boshlanadi. Ushbu holatga oid tarzda NN she'rlarining yarmidan ko'pi NSHga, yarmidan kamrog'i XMning boshqa devonlariga joylangan. Shu bilan birga yana bir qiziq holat 1995 raqamli qo'lyozmaning 25, 38, 267- g'azallari noma'lum sababga ko'ra XM she'rlari tarkibiga qo'shilmasdan chetda qolgan. Bu albatta, mantiqiy va xronologik jihatdan oqlanadi. NNning NSHdan boshqa devonlarga o'xshamagan tarzda farqli g'azal bilan boshlanishi esa 1995 raqamli qo'lyozmaning ikkinchi devondan boshqasi emasligini qayta ta'kidlash lozim bo'lgan muhim omillardir".

5. "Va nihoyat, bizning 1995 raqamli qo'lyozma haqidagi dalillarimizni qo'llab-quvvatlovchi fakt: 185a varaqda g'azallarning tugash qismida Sulton Ali Mashhadiy quyidagi yakunni yozadi:

بعون الله الملك المجید توکاندی دیوان جدید

Mazkur misralardagi muhim ma'no ifodalovchi so'zlar devoni jadid (دیوان جدید)/yangi devondir. Biz aminmizki, mavlono Sulton Ali shoirning ikkinchi yangi devoni NNning kitobatini yakuniga yetkazgani haqidagi ma'noni ifoda etgan. Bu esa 1995 raqamli nusxaning NNligiga salmoqli isbotlardan biri sifatida o'rtaga chiqadi.

Aytish mumkinki, Navoiyning hozirgacha fanda noma'lum bo'lgan ikki devonining aniqlanishi (bunda olim BB va NN devonlarini nazarda tutmoqda – O.M.) shoirning ijodiy faoliyati haqidagi bilimlarimizni boyitibgina qolmay, balki shoir ijodini o'rganishda ham, uning merosini matnshunoslik jihatdan tadqiq qilishda ham ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan beqiyos ahamiyatga egadir" [Сулейманов, 1955-61: 76].

Ma'lumki, NNning hozirda O'zR FASHI fondida saqlanayotgan 11675 raqamli Abduljamil kotib nusxasi aniqlanganda H.Sulaymon hali hayot edi. Mazkur qo'lyozmani 1966-yilda dastlab P.Shamsiyev (1897-1972) va Yo.Is'hoqov fanga ma'lum qildilar [Шамсиев, Исҳоқов, 1966]. 1987-yil esa NNning tabdil matni chop etildi. [Алишер Навоий, 1987: 622]. Unga "Abduljamil kotib nusxasi asos qilib olindi. ... Sulton Ali Mashhadiy tomonidan Hirotda ko'chirilgan 1995 inv. raqamli ikkinchi bir nusxaga solishtirilib, to'ldirildi" [Алишер Навоий, 1987: 2].

1991-yil NN devoning dastxat nusxasi sifatida faksimile nashr e'lon qilindi [Навоий дастхати, 1991: 12 б.т.]. 2020-yil ushbu devonning qadimiy yana bir nusxasi

mavjudligi haqida ma'lum qilindi [Максудов, 2020: 9-18]. Shuningdek, 2020 yil Sultonali Mashhadiy tomonidan 1500 yil ko'chirilgan qo'lyozma (Metropolitan, №13.228.20) NN nusxasi bo'lishi mumkinligi haqidagi farazdan iborat tezis e'lon etildi [Эркинов, Мадалиева, 2020: 19-21]. Ammo A.Erkinovning keyingi tadqiqotlariga ko'ra, mazkur qo'lyozma NN nusxasi emas, TD qo'lyozmasi bo'lishi mumkinligi aytilmoqda [Erkinov, 2023: 4-20]. Shuningdek, A.Erkinov Metropolitan nusxasini NN qo'lyozmalari tarkibi bilan qiyoslash jarayonida ushbu devonning stabil matni muammoli vaziyatda ekanini yozgan. Olim yuqorida sanalgan qo'lyozmalar orasida hech birining xotima qismida NN nomi keltirilmagani va ular orasidagi matniy tafovut katta hajmni tashkil etishiga diqqat qaratadi [Erkinov, 2023: 4-20]. A.Erkinovning mazkur farazlari o'rinli, albatta. Ya'ni "devoni jadid" so'zlari aynan NN devonini ifoda etmasdan, ma'lum she'rlarning saralanmasi (terma devon) ma'nosida bo'lishi ham mumkin. Lekin masalaning diqqat qaratish lozim bo'lgan boshqa tomonlari ham mavjud.

Gap shundaki, Navoiy terma devonlaridan katta qismi BB va G'S devonlarining birinchi g'azali "Ashraquat ..." bilan boshlanadi. Ma'lumki, BBning she'rlarining asosiy qismi G'Sga, NN she'rlarining asosiy qismi esa NSHga o'tgan. Navoiy she'rlaridan saralab tuzilgan TDlarning katta qismi esa G'S tarkibiga yaqin turadi. 1995 va MetNNning tarkibidan o'rin olgan g'azallarning bir qismi va boshqa janrdagi she'rlarning deyarli hammasi BBdan o'tgan. Bu esa ushbu ikki nusxaning "Terma devon" bo'lishi mumkinligini ham anglata oladi. Faqat buning orqasida yana bir savol mavjud. TDlar orasida "Zihi ..." bilan boshlanadigan va tarkib jihatidan G'Sga emas, NSHga yaqinlari juda kam. Nega Navoiy she'rlaridan TD tuzishda Mashhadiyga ergashish, ya'ni "Zihi ..." bilan boshlash yoki devonning tarkibini NSHga yaqinroq qilib tuzish an'anaga aylanmadi? Hatto XVI asr, xattotlarning ko'pchiligi Mashhadiyga o'xshashga intilishi kuchli, uning maktabi davom etayotgan bir davr bo'lsa-da? Hozircha biz aynan shu davrda ko'chirilgan o'nlab TDlar orasida tarkibi NSH devoniga yaqin birorta qo'lyozmani uchratmadik.

Mashhadiy – 1995 da deyarli har bir janrdagi she'rlarning yakunida alohida kolofonlar mavjud. Uning birinchi va so'nggi g'azali Abduljamil kotib – 11675 qo'lyozmasi bilan bir xil ekanidan tashqari yaqinlashtiradigan yana bir jihati aynan g'azallarning tugash qismida Abduljamil kotib – 11675 ning kolofon matni keltirilgan:

بعون الله الملك المجيد توكاندى ديوان جديد²⁷

Alisher Navoiy asarlari qo'lyozmalari kolofonlari matnining tadqiqi ularning shoir tirikligi chog'ida ko'proq turkiy tilda yozilganini ko'rsatdi [Мадалиева, 2021: 32-45]. Ammo Sultonali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan Navoiy asarlari qo'lyozmalari orasida turkiy kolofon bitilgan nusxa aynan 1995 raqamli NN devonidir. Bu esa ehtimol, mazkur qo'lyozmani ko'chirishda Mashhadiyga Abduljamil kotib nusxasi asos bo'lgan, shuning uchun kolofon matnini yozishda ham ushbu manbaga ergashilgan bo'lishi mumkinligiga ishora qiladi.

Ta'kidlash joizki, NN devoni qo'lyozmalari bo'lishi mumkinligi taxmin etilgan nusxalar avval ma'lum bo'lganlarining matni bilan qiyosiy tarzda o'rganilishi masalasi navoiyshunoslik oldida turgan muhim vazifalar sirasiga kiradi. Ushbu masala bilan jiddiyroq kirishganimiz, Mashhadiy va Abduljamil nusxalarini qiyosiy o'rganishimiz natijasida e'tiborimizni tortgan ba'zi muhim jihatlar quyidagilarda aks etadi.

²⁷ Alisher Navoiy. Navodir un-nihoya. №№ 11675, 1995.

H.Sulaymon 1995 tarkibi haqida quyidagicha ma'lumot beradi. 693 ta she'r mavjud: 1) 628 ta g'azal²⁸, 2) 3 ta mustazod, 3) 3 ta tarji'band, 4) 5 ta qit'a, 5) 46 ta ruboiy, 6) 1 ta chiston, 7) 6 ta muammo, 8) 1 ta tuyuq. Shulardan 103 tasi yoshlik lirikasidan (№ 564), 130 tasi yigitlik lirikasidan (№ 746) olingan. Birinchi va ikkinchi davr lirikasi ayirib tashlanganda qolgan 460 ta she'rni birinchi va ikkinchi davrning she'rlari orasida uchratmaymiz. Ushbu she'rlar BBdan keyin va XM tuzila boshlagunga qadar, ya'ni 897/1491-92 yilgacha yozilgandir [Сулейманов, 1955-61: 142-143]. Mana shu 460 ta she'r biz o'rta yosh lirikasi deb nomlaganimiz shoir lirikasining uchinchi davrini tashkil etadi [Сулейманов, 1955-61: 143]. Mazkur tekshiruvni Abduljamil nusxasi asosida yana bir bor ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Shuningdek, yangi aniqlangan qo'lyozmalar tarkibi hisobiga ushbu raqam yana o'zgarishi mumkin. Sababi OQMD, BBning yangi aniqlangan 5- va 6- qo'lyozmalari 1995 raqamli qo'lyozmadan avval ko'chirilgan.

11675 da jami 812 ta g'azal bor, shulardan 201 tasi qo'lyozma varaqlarining hoshiyasiga ko'chirilgan. Noma'lum sababga ko'ra, MAT 2-tomida esa 840 ta deb ma'lumot berilgan. Ehtimol, nashrga tayyorlovchilar takror g'azallarni ham hisobga olgan bo'lishi mumkin, ammo shunda ham ularning hisobi 10 ta g'azalga ko'plik qilmoqda. Sababi hoshiya g'azallardan 8 tasi yana hoshiyada takrorlangan.

11675 raqamli qo'lyozma g'azallaridan 217 tasi 1995 raqamli qo'lyozmada mavjud emas. Ushbu g'azallarning 132 tasi nusxaning hoshiyasida ko'chirilgan. Ularning Navoiy yoshlik lirikasidan qaytarilgan bo'lishi mumkinligi ehtimolini tekshirib ko'rdik. Natijada g'azalning 23 ta g'azalning IDdan, 20 tasining BB devonidan olingani ma'lum bo'ldi. Ushbu 43 g'azaldan 5 tasi ham ID, ham BB tarkibida mavjudligi ayon bo'ldi. Natijada mazkur 217 ta g'azalning 38 tasigina Navoiyning birinchi va ikkinchi davr lirikasiga oidligi o'rta chiqdi. Shu tariqa, NN Abduljamil qo'lyozmasida Navoiyning BB tuzilgandan to 1487 yilgacha yozgan 179 ta g'azali kitobat qilinganini ta'kidlash mumkin.

1995 raqamli qo'lyozma g'azallaridan 51 tasi 11675 raqamli qo'lyozmada mavjud emas. Bu g'azallarning 11 tasi hoshiyada ko'chirilgan. Ulardan 6 ta g'azalning ID, 5 tasining BB va 1 g'azalning OQMD tarkibida ham mavjudligi, shu tariqa, jami 12 ta g'azalning aslida Navoiy yoshlik lirikasi ekanini o'rta chiqaradi. Qolgan 39 g'azalning esa 1487 yildan so'ng to XM tuzilgunga qadar yozilgan she'rlar ekanini taxmin etish mumkin.

